


2021- yilning yanvar–mart oylarida Samarqand viloyatining qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi


Dastlabki ma'lumotlarga koʻra, 2021– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi -3 927,4 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 3 738,0 mlrd. soʻm (101,0 %ni), oʻrmon xoʻjaligi – 185,3 mlrd. soʻm (101,5 %ni), baliq xoʻjaligi –4,1 mlrd. soʻm (104,3 %ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 13,1 %ni tashkil etdi.

**23168,6****Samarqand viloyati boʻyicha
qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm****3 738,0****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar****185,3****Oʻrmon xoʻjaligi****4,1****Baliq xoʻjaligi**

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi(%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021– yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,2 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,7 % o‘rmon xo‘jaligi, 0,1 % baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2021– yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (501 mlrd. so‘m) va Toyloq (387 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Samarqand shahri (27 mlrd. so‘m) va Kattaqo‘rg‘on shahrini (34 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘shish sur‘atlari Qo‘shrobot (103,9%), Narpay,(102,3 %) Oqdaryo, (103.5 %) hamda Bulung‘urda (102.6%) tumanlarida kuzatildi. Paxtachida (96,6 %), Samarqand shahri (97,6 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish (o'zgarish) sur'ati, %



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 738,0 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 165,7 mlrd. so'm (104,4 %)ni, chorvachilik mahsulotlari 3 561,4 mlrd. so'm (100,8 %)ni tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (%)

4,4 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



95,6 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 89,6 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,6 % – fermer xo'jaliklariga, 3,8 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, %da




2021–yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toyloq tumanida (30,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (99,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (50,3 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (0,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi toyloq tumanida (69,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,0 %) qayd etildi.

Sabzavotlar



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2,9 ming tonna sabzavotlar (2020–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,5%ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,6% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2021– yilning yanvar–mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3 561,4 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 100,8 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,3 %ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 61,9 ming tonna go'sht (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 0,2 %ga koʻp), 273,1 ming t. sut (2,1 %ga koʻp), 243,7 mln. dona tuxum (3,3 %ga kam) va 199,9 t. baliq (6,3 %ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 61,9 ming tonna go'sht (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 0,2 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, ming tonna




Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021-yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 273,2 ming tonna sut (2020-yilning yanvar–martiga nisbatan 2,1%ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,4%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, ming tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 243,7 mln. dona tuxum (2020–yilning yanvar–martiga nisbatan 3,3 %ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 48,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.




Samarqand viloyati bo'yicha
olingan **tuxum**
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 199,9 tonna (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 6,3 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 73,0 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni, o'rish sur'ati




2021– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,1 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,8 %i fermer xo'jaliklariga, 89,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 12,3 %i fermer xo'jaliklariga, 86,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 37,8 %i fermer xo'jaliklariga, 48,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 13,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 566,5 ming taga yetdi. 2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 12,2 ming taga (0,8 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2021–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 663,1 ming taga yetdi. 2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 5,8 ming taga (0,9 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati




**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 94,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 421,5 ming taga yetdi. 2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 19,9 ming taga (0,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 89,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 26 420 taga yetdi. 2020 – yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 380 taga (1,5 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 86,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati
bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 11 377,2 ming taga yetdi. 2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 818,9 ming taga (6,7 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 48,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 66-230-45-30
• 66-235-22-01